



UDK: 1:316.42:327

**Bunyod RAXIMOV,**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktranti*

*E-mail: rahimovbunyod25@gmail.com*

*ORCID: 0009-0003-6088-918X*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, f.f.d B.Aliyev taqrizi asosida*

## PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE TRANSFORMATION OF MODERN SOCIAL THOUGHT UNDER CONDITIONS OF GLOBAL CHALLENGES

Annotation

This article examines the transformational features of modern social thought in the context of global challenges, as well as relevant philosophical and methodological approaches. In particular, it scientifically explores the structural and conceptual changes occurring in human consciousness as a result of globalization processes, ecological crises, the development of digital technologies, and the expansion of the information space. It also highlights the factors influencing the formation of modern social thought.

**Keywords:** Global issue, transformation, globalization, global studies, thinking, digitalization, eco-culture, modernization.

## ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ТРАНСФОРМАЦИИ СОВРЕМЕННОГО СОЦИАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ

Аннотация

В данной статье рассматриваются трансформационные особенности современного социального мышления в контексте глобальных проблем, а также соответствующие философско-методологические подходы. В частности, научно раскрываются структурные и содержательные изменения, происходящие в сознании человека в результате процессов глобализации, экологических кризисов, развития цифровых технологий и расширения информационного пространства. Также освещаются факторы, влияющие на формирование современного социального мышления.

**Ключевые слова:** Глобальная проблема, трансформация, глобализация, глобалистика, мышление, цифровизация, экологическая культура, модернизация.

## GLOBAL MUAMMOLAR SHAROITIDA ZAMONAVIY IJTIMOYIY TAFAKKUR TRANSFORMATSIYASINING FALSAFIY TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqolada global muammolar kontekstida zamonaviy ijtimoiy tafakkurning transformatsion xususiyatlari hamda unga oid falsafiy-metodologik yondashuvlar haqida so'z yuritiladi. Xususan, globalizatsiya jarayonlari, ekologik inqirozlar, raqamli texnologiyalar va axborot makonining kengayishi natijasida inson ongida yuz berayotgan strukturaviy va mazmuniy o'zgarishlar ilmiy asosda ochib beriladi. Shuningdek, zamonaviy ijtimoiy tafakkur shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Global muammo, transformatsiya, globalizatsiya, globalistika, tafakkur, raqamlashtirish, eko-madaniyat, modernizatsiya.

**Kirish.** Dunyo ilm-fanida yuz berayotgan tub burilishlar insoniyat tarixiy taraqqiyotining yanada rivojlanishiga, o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Zamonaviy dunyoning tobora raqamlashib borishi hamda axborot makonining kengayishi va murakkablashuvi, global muammolarning ko'lamini va madaniyatlararo ta'sirini oshirmoqda. Shu sababli ham ijtimoiy tafakkur shakllarining yangicha ko'rinishlarini qabul qilish insoniyat uchun asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. O'z o'rnida mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining turli sohalarida barqaror taraqqiyotga erishish omili sifatida milliy siyosat, xalqaro hamkorlik, ekologik mas'uliyat va zamonaviy ijtimoiy tafakkur transformatsiyasini uyg'unlashtirgan tizimli yondashuvlarni rivojlantirish kabi muammolarga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev o'z asarlari va nutqlarida zamonaviy tafakkurni yangilash, ochiq fikrlash va global jarayonlarga moslashish zaruratini alohida ta'kidlaydi, xususan, «geosiyosiy manfaatlar to'qnashuvi xalqaro aloqalarda o'zaro ishonch va hamkorlik munosabatlariga putur yetishiga, qarama-qarshilik va nosog'lom raqobat kuchayishiga sabab bo'lmoqda» [1].

Bugungi kunda mamlakatimiz tashqi va ichki siyosatida iqlim o'zgarishi va atrof-muhitni muhofaza qilish, suv resurslari va mintaqaviy hamkorlik, xalqaro hamjihatlik va diplomatiya sohalaridagi yondashuvlari xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda. Bu esa dunyodagi ijtimoiy-siyosiy tanglik fonida jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlash, zamonaviy ijtimoiy

tafakkurning yangilanishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan ilmiy-texnologik jarayonlarning yanada rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi prezidentining «O'zbekiston-2030» strategiyasini tasdiqlash bo'yicha 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmoni [2] ekologik muammolarda iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi, cho'llanish kabi muammolarga qarshi dasturlar ishlab chiqarish, raqamli texnologiyalarda davlat xizmatlarini raqamlashtirish, barqaror rivojlanish va global integratsiya, IT va innovatsion ekotizimni rivojlantirish, ilmiy va akademik faoliyatning yanada kuchayishiga asos vazifasini bajaradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Umumbashariy muammolar sharoitida zamonaviy ijtimoiy tafakkurning transformatsiyasi masalasi asosan ijtimoiy gumanitar fanlar bo'lmish falsafa, sotsiologiya va siyosatshunoslik kabi fanlardagi muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Ayniqsa, ekologik inqiroz, texnologik inqilob, global tengsizlik va madaniy identifikatsiya muammolari jamiyat tafakkurining yangicha shakllanishiga sabab bo'lmoqda [3]. Albatta bunday jarayonlar har qanday davlat tashqi va ichki siyosatining asosini belgilab beradi. Chunki umumbashariy muammolar faqatgina tor doirada emas, balki butun yer yuzida joylashgan davlatlar taraqqiyoti va kelajak taqdiriga ta'sir qiladi. Shu sababli ham ushbu atamaga olimlar tomonidan «global» (lot. globus - yer kurrasi) deb ta'rif berilgan. Bu termin va ushbu muammoning nazariy asoslarini shakllantirishda bir qator yetakchi olimlarning ishlari muhim o'rin tutadi. «Global muammolar» (yoki global muammolar

tushunchasi) ilmiy muomalaga XX asrning ikkinchi yarmida aniqroq qilib aytganda 1972-yilda kiritilgan bo'lib, unga birinchi aniq va tizimli ta'rif berganlar qatoriga Rim klubi olimlari kiradi. Ayniqsa, ular tomonidan e'lon qilingan «O'sishning chegaralari» [4] hisobotida umumbashariy muammolar ilmiy asosda yoritib berilgan va tushunchaga keng ta'rif berilgan. Savol tug'iladiki, shu davrgacha yashab o'tgan sivilizatsiyalar yoki imperiya va davlatlarda muammolar bo'lganmi yoki ushbu muammolar qachon xalqaro darajaga ko'tarilgan? Bizning fikrimizcha inson tafakkuri o'zgarib borar ekan u yangi tug'ilgan ehtiyojlarini qondirish uchun ma'lum darajada resurslarga zarurat sezadi. Bu esa o'z o'rnida ehtiyojlarni yangi hududlar, yoki yangi savdo yoki karvon yo'llari orqali qondirishni taqozo qilgan. Masalan qadimgi davrlarda ham xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar asta-sekin rivojlanib borgan va ma'lum bir hududda yashovchi xalqlarning tafakkur doirasiga xususan, ijtimoiy tafakkur tarziga katta ta'sir qilgan.

Bu jarayon insoniyat tarixida turli hududlar o'rtasida o'zaro ta'sir va integratsiya jarayonlarining shakllanishiga olib kelgan. Ana shunday tarixiy aloqalar tizimining eng muhim namunalardan biri Buyuk Ipak yo'li hisoblanadi. Buyuk Ipak yo'li miloddan avvalgi II asrda, ayniqsa Xitoydagi Xan sulolasi davrida shakllana boshlagan. Bu davrda Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo yo'llari kengayib, turli mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlik rivojlangan. Britaniyalik tarixchi Valeriy Hansen ipak yo'li aslida yagona yo'l emas, balki ko'plab savdo yo'llaridan iborat murakkab tizim bo'lib, u Sharqiy Osiyodan boshlab Markaziy Osiyo orqali Yaqin Sharq va Yevropaga qadar cho'zilgan deya ta'kidlaydi [5]. Shu sababli ham biz Buyuk Ipak yo'lini global muammolar va uning ijtimoiy tafakkur o'zgaruvchanligiga ta'sir etgan dastlabki omil bo'lganligini ta'kidlashimiz mumkin, va u xalqlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlab, turli hududlarning o'zaro rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan. Shu sababli Buyuk Ipak yo'li qadimgi davrda shakllangan xalqaro aloqalar tizimining muhim tarixiy asoslaridan biri sifatida qaraladi.

Global muammolar va uning inson tafakkuriga ta'sir qilish jarayonlarini biz ushbu muammolarni atroflicha o'rgangan Alvin Tofflarning «The third wave» asarida jamiyat va uning tafakkur qilish qobiliyatini rivojlanishini uch bosqichli to'lqin orqali izohlashida va bu jarayonda ijtimoiy tafakkurning transformatsiyasini asoslab berishida ko'rishimiz mumkin [6]. Muallif futurologik bashorat qilgan ekan, har bir tarixiy bosqich insonning dunyoni anglash usulini tubdan o'zgartiradi. Masalan birinchi to'lqin asosiy mashg'uloti qishloq xo'jaligi bo'lgan sivilizatsiyalar o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlarini turli xil tabiat hodisalarini tufayli nobud bo'lishini kuzatgan va shu sababli ham ularning tafakkuri qadriyatlariga asoslangan, diniy mazmunga ega ko'rinishda bo'lgan. Ikkinchi to'lqin birmuncha katta davrni o'z ichiga oladi bunda XVI- XVII asrlar sanoatning rivojlanishi jamiyat tafakkurini ratsional jihatdan qayta ko'rib chiqishga undadi. Aynan shu davrdan boshlab inson muammolari ilk bor o'zlari yashab turgan geografik hududdan tashqariga chiqdi bunga buyuk geografik kashfiyotlar, davlatlar o'rtasidagi resurslar uchun o'zaro urushlar sabab bo'lgan. Albatta bu hodisalar tub joy aholi va yangi ko'xhib keluvchi jamiyat tafakkuriga, madaniyatiga, tiliga jiddiy ta'sir qildi. Fikrimizcha, keyingi bosqich dunyo xalqlarining postindustrial taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan bo'lib, bunda global muammolar va ularning moslashuvchan, axborotga asoslangan va individual zamonaviy tafakkurga ta'sirini ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari Antony Giddens zamonaviylikni «refleksiv modernlik» sifatida talqin qilib, ijtimoiy tizimlarning o'z-o'zini qayta ko'rib chiqish xususiyatini ta'kidlaydi [7]. Bunda olim ko'proq iqtisodiy masalalar orqali zamonaviy inson va zamonaviy jamiyat o'rtasidagi uzviy aloqadorini ochib beradi. Albatta bu to'g'ri, sababi o'z-o'zini qayta ko'rib chiqish jamiyat taraqqiyoti va unda hayot kechiruvchi insonlar jamoasining real dunyodagi barcha imkoniyatlardan birdek foydalanishga imkon beradi. Bu jarayonlar esa zamonaviy ijtimoiy tafakkurning sinergetik moslashuvchanligi va dinamikligini oshiradi. Inson tafakkurining global muammolar ta'sirida o'zgarishini britaniyalik

filosof va politolog Zigmunt Bauman «suyuq modernlik yoki zamonaviylik» nazariyasini ilgari surar ekan, siyosiy hukumatlar tushunchasi orqali tahlil qiladi. Unga ko'ra zamonaviy dunyoda barqaror ijtimoiy tuzilmalar yemirilib, inson tafakkuri ham beqaror va o'zgaruvchan xarakter kasb etadi [8]. Garvard universiteti professori bo'lgan amerikalik politolog olim Hantington fikriga ko'ra, globallashuv jarayoni bir tomondan madaniyatlararo aloqalarni kuchaytirsa, ikkinchi tomondan ular o'rtasidagi farqlarni yanada yaqqol namoyon qiladi[9]. Natijada insonlarning ijtimoiy ongida zamonaviy tafakkur transformatsiyasining muhim jihatlardan biri hisoblangan «biz» va «ular» kabi solishtiruvchi kategoriyalar vujudga keladi. Fikrimizcha, bu inson tafakkurining zamonaviy aloqalarga nisbatan adaptatsiyasini kuchaytiradi yoki identifikatsiya jarayonlarini mustahkamlaydi.

Xalqaro darajadagi tadqiqotchilar qatorida o'zbek olimlari ham umumbashariy muammolar sharoitida zamonaviy jamiyat tafakkuridagi transformatsiya masalalarini tahlil qilishgan, faqat bu jarayonni ular ko'proq milliy qadriyatlar va ma'naviy omillar bilan bog'lab o'rganganlar. Masalan, I Raxmonberdiyev umumbashariy muammolarni sivilizatsiyalararo muloqot usuli orqali hal qilishini, [9] X.S. Jumaniyozov, [10] M. Aminova, F.A. Abduraxmonov, M.S. Xajiyeva, F.F. Xatamov, F.B. Matyabova, A.A. Isadjanov, N.S. Ismailovalar mamlakatimizda ijtimoiy tafakkurning yangilanish omillarini tahlil qilishgan. O'zbekistonda tadqiqot olib borayotgan izlanuvchilar, ayniqsa ijtimoiy fanlar sohasida tadqiqotchilar global muammolar va uning inson tafakkuriga salbiy ta'sirini oldini olish uchun o'z xulosalarini berganlar bu xulosalarni jamlab biz uni shartli ravishda 3 ta yirik yo'nalishga ajratamiz:

Ekologik muammolarda- suv resurslarini tejash, yashil texnologiyalarni joriy etish, ekologik muvozanatni tiklash (Orol dengizining qolgan qismini saqlash va uning atrofidagi ekologik vaziyatni barqarorlashtirish);

Ilm-fan va innovatsiyada- sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, biotexnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etish orqali iqtisodiy rivojlanish;

Ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy yo'nalishda- ta'lim sifatini oshirish, yoshlar bandligini ta'minlash, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, insonparvarlik, adolat, tinchlik g'oyalari orqali barqaror rivojlanish.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur ilmiy tadqiqotda global muammolar sharoitida zamonaviy ijtimoiy tafakkur transformatsiyasining falsafiy tahlilini ochib berish uchun umumiy konseptual va strukturaviy metodologik yondashuvlar qo'llanildi, va uning nazariy asosini tafakkur va insoniyatning ruhiy olamini o'rganuvchi ijtimoiy-gumanitar fanlardagi paradigmlar tashkil etib, ular orqali ijtimoiy tafakkur o'zgaruvchanligi hamda moslashuvchanligi global jarayonlar bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilindi. Ish jarayonida, avvalo, dialektik-sinergetik metoddan foydalanilib, ijtimoiy tafakkurning o'zgarish jarayonlari qarama-qarshiliklar birligi va rivojlanish qonuniyatlari asosida o'rganildi. Bu metod XXI asrdagi global muammolar ta'sirida yuz berayotgan o'zgarishlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, tizimli tahlil yondashuvi asosida global muammolar va jamiyat ongidagi o'zgarishlar o'zaro bog'liq tizim sifatida ko'rib chiqildi hamda ularning bir-biriga ta'siri kompleks tarzda yoritildi. Tadqiqotda falsafa fanidan eng muhim metodlardan biri bo'lgan ijtimoiy tahlil metodi ham muhim o'rin egallab, u orqali turli tarixiy bosqichlarda ijtimoiy tafakkur shakllarining o'zgarishi solishtirildi. Jumladan, agrar jamiyatdan industrial va bosqichlari aniqlashtirildi. Vorisiylik qonuni asosida esa ijtimoiy tafakkurning shakllanishi va rivojlanishini izchil ravishda tahlil qilish, xususan, qadimgi madaniyatlar davridan boshlab zamonaviy globallashuv bosqichigacha bo'lgan evolyutsion jarayonlarni ochib berishga xizmat qildi. Bu jarayonda Buyuk Ipak yo'li kabi tarixiy integratsiya omillarining ijtimoiy tafakkurga ta'siri ham alohida e'tiborga olindi.

**Tahlil va natijalar.** Global muammolarni tahlil etar ekanmiz, bevosita uning kelib chiqishi va insoniyat tarixiy taraqqiyotiga jiddiy ta'sirini kuzatishimiz mumkin. Umumbashariy muammolar kishilik jamiyatda zamonaviy ijtimoiy tafakkurning

mazmuni va shaklini tubdan o'zgartirmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu jarayon falsafiy jihatdan inson tafakkuri va ongini yangi bosqichga ko'tarilishi, ya'ni mahalliy darajada fikrlashdan dunyo miqiyosida ya'ni, global tafakkurga o'tish sifatida talqin qilinadi. Ushbu jarayon ekologik inqiroz, raqamli texnologiyalar rivoji va ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, tafakkurning mazmuni va yo'nalishini tubdan o'zgartirmoqda. Bunda inson tafakkuri hattoki ilm-fanning rivojlanshi natijasida kelajakda vujuga kelishi mumkin bo'lgan global muammolarning gipotezasiga ham qodir bo'ladi. Umuman olganda, zamonaviy ijtimoiy tafakkur transformatsiyasi bugungi kundagi axborotlashgan jamiyat rivojlanishining muhim omili bo'lib, u global muammolarni anglash va ularni hal etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, Global muammolar sharoitida zamonaviy ijtimoiy tafakkur

sezilarli darajada transformatsiyaga uchramoqda. Shuningdek, zamonaviy ijtimoiy tafakkurda ekologik ma'suliyatning kuchayishi, axborotlashgan jamiyatlar ta'sirining ortishi hamda global mas'uliyat, ya'ni barcha uchun birdek zarur bo'lgan javobgarlik hissining shakllanishi asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Natijada XXI asr odami dunyo miqiyosida fikrlash qobiliyatiga ega bo'lmoqda. Shunday ekan biz ham ham ta'lim tizimida global tafakkur va ekologik ma'suliyatni yanada mustahkamlashga, hamda yoshlarimiz orasida tanqidiy fikrlash va axborot madaniyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Shundagina biz globalizatsiya jarayonlari sharoitida o'zligimizni, milliy madaniyatimiz va tarixiy o'tmishimizni asrab-avaylash hamda kelajak avlodlarga yetkazish imkoniga ega bo'lamiz.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib , yangi bosqichga ko'taramiz. 1-j.-T.: «O'zbekiston » NMIU, 2017. B.45.
2. O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston2030" strategiyasini tasdiqlash bo'yicha 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmoni . // www.lex.uz.
3. Ulrich Beck. Risk Society: Towards a New Modernity, translated by Mark Ritter London: Sage Publications, 1992.
4. Meadows D. H., Meadows D. L., Randers J.Limits to Growth: The 30-Year Update. - London: Earthscan, 2005. - 35-p.
5. Hansen, V. The Silk Road: A New History. - Oxford: Oxford University Press, 2012. - 296 p.
6. Toffler, A. The Third Wave. -New York: William Morrow and Company. 1980. -436-p.
7. Giddens, A. The Consequences of Modernity. Stanford: Stanford University Press, 1990.
8. Bauman, Z. Liquid Modernity. Cambridge: Polity Press, 2000. - 45 p.
9. Huntington, S. P. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. New York: Simon & Schuster, 1996. - 110 p.
10. Raxmonberdiyev, Islombek Ilxom o'g'li.Samuel Xantington qarashlarida sivilizatsiyalararo muloqot va raqobat tendensiyasining ijtimoiy-falsafiy tahlili : 09.00.04 – Ijtimoiy falsafa mutaxassisligi bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya / I.I. Raxmonberdiyev. - Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2025.
11. Jumaniyozov X.S. Globallashuv asoslari. – Toshkent: Lesson Press, 2023. – 352 b.